

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
FIZIKA O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**YULDOSHEV ULUG`BEK YULDOSHEVICHNING**

**“5440100-Fizika”ta'lism yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini  
olish uchun**

**YUQORI HARORATLI O'TA O'TKAZUVCHAN  
MATERIALLARIDA RELAKSATSIYA HODISASIGA ASOSAN  
ION O'TKAZUVCHANLIKNI ANIQLASH**

**mavzusida yozgan**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: F-m.f.n.I.A. Ergashev**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”  
Fizika-matematika fakulteti  
dekani: \_\_\_\_\_ prof.A.Q.Tashatov  
“\_\_\_\_\_”**

## MUNDARIJA:

KIRISH.....	4
<b>I-BOB. PIROVSKIT STRUKTURASIGA EGA BO'LGAN BIRIKMALARDA FAZOVİY O'TİSHLAR VA RELAKSATSION HODİSALAR</b>	
1.1 SEGNETOELEKTRİK MATERİALLARDA FAZOVİY O'TİSHLAR NAZARIYASI.....	9
1.2 $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ BIRIKMASIDA AKUSTİK TADQIQOTLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.....	14
1.3 MASALANING QO'YILISHI.....	19
<b>II-BOB. EKSPERİMENTNING METODİK QİSMI</b>	
2.1 NAMUNALARİNG TAYYORLANISHI.....	20
2.2 AKUSTİK EXO-IMPULS METODI VA O'LCHASH METODİKASI...	24
2.3 TOVUSHNING YUTILISH KOEFFİTSİYENTINI ANIQLASH METODİKASI (USULLARI).....	32
<b>III-BOB. <math>\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}</math> KERAMIKA BIRIKMASIDA RELAKSATSION HODİSALARINING TABİATINI TEKSHİRISH</b>	
3.1 $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ KERAMİKALARIDA RELAKSATSION HODİSALAR TABİATINI 77-300K TEMPERATURA ORALIG'IDA TEKSHİRISH .....	35
3.2 $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ KERAMİKALARDA AKUSTİK TO'LQINLAR YUTILISHINING 77-300K HARORATDAGI ANAMAIYASI (ASOSIY XOSSALARIDAN CHETLANISH).....	42
3.3 $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ MONOKRİSTALLARIDA RELAKSATSION HODİSALAR TABİATINI 77-500K TEMPERATURA ORALIG'IDA TEKSHİRISHGA ASOSAN ION O'TKAZUVCHANLIKNI ANIQLASH. XOTIMA VA ASOSIY XULOSALAR.....	46
	51

**KIRISH.**

Har qanday moddani qanday agregat holatda bo'lishidan qat'iy nazar ularni fizikaviy-ximiyaviy xossalari, ayniqsa skustik xossalari bilish, ulardan amaliyotda to'g'ri foydalanishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida hurmatli prezidentimiz aytganlaridek tabiat in'om etgan xom-ashyolardan hamda yoqori haroratli o'ta o'tkazuvchan  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmalaridan to'g'ri ilmiy asoslangan holda elektronikada va ishlab chiqarishda foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi[1].

2010 yil 12 noyabr kuni hurmatli prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo'shma maslisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni ya'nada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" mavzusida ma'ruza qildilar[2]. O'z ma'ruzalarida oltita yo'nalishni eng muhum ustuvor vazifalar sifatida belgilab berdilar. Bu yo'nalishlar quyidagi yo'nalishlardir.

1. Davlat hokimiyyati va boshqaruvni demokratlashtirish
2. Sud-huquq tizimini isloh qilish
3. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash
4. O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish
5. Fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirish va rivojlantirish
6. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish

Oltinchi yo'nalishda raqobat to'g'risida to'xtaldi. Raqobatlasha oladigan har qanday mahsulot yoki shu mahsulotni ishlab chiqaruvchi ilmiy asoslangan bo'lsagina yoki uni ishlab chiqaruvchining ilmiy saviyasi yuqori darajada bo'lganligini bu mahsulot raqobatlasha olishi mumkin ekanligini anglash mumkin.

Ushbu kontseptsiya O'zbekiston zaminida yashayotgan fizik, ximik, biolog, shifokor, muxandis, iqtisodchi, moliyachi, talaba va hokazo, kim bo'lishdan qat'iy nazar hamma uchun dasturul amal bo'lib hizmat qiladi.

**Mavzuning dolzarbliji.** Yuqori haroratli o'tkazuvchan materiallar  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  (YBCO) birikmalari intinsiv ravishda tekshirilmoqda. Bu birikmaga qiziqish undagi yuqori haroratli o'tkazuvchanlikning parametrlarining mavjudligi sintezning nisbatan oddiyligi hamda oddiy kristal strukturasiga ega ekanligidan foydalanib qator yuqori haroratli o'tkazuvchan materialarning moduli sifatida qarash mumkun. Bu birikmaning ko'p xususiyatlari asosan uning o'ta-o'tkazuvchanligi kristall panjaraga kiruvchi kislarod ionlarining dinamikasi va stexiometriyasiga bog'liq.

Bu birikmada qator fazalar (fazoviy o'tishlar) mavjud bo'lib kislarod miqdorining temperaturaga bog'liqligi bilan tekshiriladi. Hozirgi vaqtida adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarning qarama -qarshiligi bu birikmaning aktualligini orttiradi, hamda ularning strukturasini o'rganish uchun juda yuqori sezgir bo'lgan metodlarni qo'llashga to'g'ri keladi. Bunday metodlardan biri ultratovush metodi bo'lib fazoviy o'tishlar, relaksatsiyasi hodisalari, kristall panjaradagi defektlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Yuqoridagi metodlar bilan mikroskopik jarayonlarda atomlarning sakrashi evaziga fazoviy o'tishlar sodir bo'ladi.

Atomlarning termoaktivatsion jarayoniga mos keluvchi temperaturalar namunada atomlarning tebranish chasotasiga mos keladi. Buning natijasida temperaturaga bog'liq bo'lgan relaksatsiyani aniqlash mumkin, qaysi kim namuna bo'yicha tarqalayotgan ultratovush to'lqinlari orqali fazoviy o'tishlar bo'lgan holda yutilishning maksimum cho'qqilari chastotaga bo'g'liq bo'lmasdan maksimum temperaturalarning fazoviy o'tishlariga mos keladi. Asosiy masala yuqori haroratli o'tkazuvchanlik birikmalarda o'tkazuvchanlik holatiga fazoviy o'tishlarning mavjudligidir.

Yuqori haroratli o'tkazuvchan materialarga bo'lgan qiziqish ularning amaliyotda qo'llanilishiga bog'liq. Hozirgi vaqtga kelib eksperimental tadqiqodlar natijalari shuni ko'rsatadiki yuqori haroratli o'tkazuvchan

materiallar elektron texnikada quyidagi qurilmalarni ishlab chiqishda qo'llanilmoqda.

Harorat sezgirligini ancha katta bo'lgan va T=78K temperaturada ishlaydigan katta diapazondagi to'lqin uzunliklarini qabul qila oladigan bolometrlar va hokzo.

**Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi**  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmasida 77-550 K temperatura intervalida akustik anomaliya xususiyatlarini va tabiatini, relaksatsion hodisalarini nazariy hisoblash, taqqoslash va o'rganishdan iborat. Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi masalalar qo'yilgan.

- Akustik exo- impuls metod qurilmasida UT tulqinlarining yutilishi koeffisientining absalyut qiymatlari uchun madernizatsiya qilish.
- $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmasidagi struktura relaksatsiyalar va fazoviy o'tishlarni olingen natijalarga asoslangan holda taqqoslash.
- $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmalari kiramik va monokristal namunalarida 77-550K va 10-150MGs chastotalariga ultratovush yutilishini o'lchash.

Tekshirish obekti sifatida bitiruv malakaviy ishida  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  kiramika va har xil o'lchashiga monokristal birikmalari olingen, o'lardagi spektrlarga asosan super ion o'tkazuvchanlikni hisoblash

**Tekshirish metodi.** Eksperimental tekshirishlar (Yu.H.O'.O'M)  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramika va monokristal birikmalarini akustik exo-impuls metodi bilan (10-150MGs) chastota diapozonida ultratovush to'lqinlarining yutilish bilan o'rGANildi.

Yuqori chastotalarini olishdan asosiy maqsad past chastotalarga nisbatan yuqori chastotalarda yuqori haroratli o'tkaZgich matiriallar ultratovush to'lqinlarini yutilishini qayd qilish ancha kuchli va aniqlik darajasi katta.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiyligi.** BMIda olingen natijalar  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmasiga fazoviy o'tishlar tabiatini tushuntirish uchun yetarli

emas. Shuning uchun yuqori haroratdali o'tka zuvchan materiallarni akustik xususiyatlarini hamda akustik parametrlarini o'rganib hozirgi zamон asbob-uskunalar ishlab chiqarishga tadbiq etishdan iboratdir.

**Birinchi bob** segnetikelektrik materiallarda hamda  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmalarda fazoviy o'tishlar nazaryasiga asoslangan materiallar berilgan. 1-bo'linda asosan pirovskit strukturasiga ega bo'lgan segnetoelektrik materialdagи fazoviy o'tishlar va  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmалari ham qaralgan. Keng qamrovli temperatura deapazonida tekshirishlarning mexanizmlari chastota va kislarod miqdorining ( $\text{O}_{7-x}$ ) stixiyametriyalari. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar taxliliga asosan muammoning **aktualligi** masalani qo'yilishi maqsadi va tekshirish masalalari qayd etilgan.

**Ikkinchи bob** asosan B.M.I da tekshirishlarni bajarishga qo'llanilgan metodikaga bag'ishlangan. Har xil kislarod miqdoriga ( $\text{O}_{7-x}$ ) ega bo'lgan namunalarni olish uchun ( $900-670^{\circ}\text{C}$ ) haroratda termik ishlov berilib suyuq azotdan qayta ishlab berilgan  $x=1$  ga teng bo'lgandagi kislarod miqdoridan namuna yuqori haroratda ( $800^{\circ}\text{C}$ ) vakuumda tayyorlangan. Kislarod miqdori namunada C parametrga asosan rentgenografik usulda aniqlangan. Bu bo'linda akustika exo-empuls metodi bilan ultratovush to'lqinlarining yutilish metodikasi qisqacha bayon etilgan.

**Uchinchi bobda** akustik to'lqinlarining keramika va monokristall namunalar  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  da  $550-77$  K va  $77-77$  K harorat intervalida tekshirilgan natijalarning qiymatlari berilgan. Har xil kislarod miqdoriga ega bo'lgan namunalar tekshirilgan  $100$  K temperaturada ultratovush yutilishining maksimum qiymati aniqlangan. Hosil bo'lgan cho'qi 1-tartibli fazoviy o'tishlar natijasida hosil bo'lgan  $230-80$  K temperatura intervalida ultratovush to'lqinlarining yutilishi natijasida ulkan temperatura gisterizisi aniqlangan. Xuddi shuningdek keramika va monokristallar birikmalarda ultratovush

to'lqinlarining yutilish anomaliyalari 290-250 K va 400-470 K haroratga ham aniqlangan. 280-230 K temperatura intervalida aniqlangan temperatura gesterezi 230 K temperaturada fazoviy o'tishlar bilan hosil bo'lgan. Olingan spektrlarning interpretatsiyasi berilgan. Undan tashqari yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan material monokristalga 300-550 K temperatura oralig'iga relaksatsion hodisalarga ham bog'langan bo'ylama ultratovush to'lqinlarini 10-150mGs chastota intervalidagi tovush to'lqinlar yutilishining temperamentiga bog'liqligi o'lchangan. Bunga asosan materiallarda superion o'tkazuvchanlik hisoblab topilgan, yani  $\tau = 1.7 \cdot 10^{-2} (\text{Om} \cdot \text{sm})^{-1}$ .

# I BOB. PIROVSKIT STRUKTURASIGA EGA BO'LGAN BIRIKMALARDAGA FAZOVIY O'TISHLAR VA RELAKSATSION HODISALAR.

## 1.1 SEGNETOELEKTRIK MATERIALLARDA FAZOVIY O'TISHLAR NAZARIYASI.

Hozirgi vaqtda shu narsa ma'lum bo'ldiki perovskit strukturasiga ega bo'lgan birikmalariga kislarod elementining defektligi munosabati bilan o'ta o'tkazuvchanlik holatiga o'tadigan birikmalardan biri  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ . Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida ko'rsatilganidek yuqori haroratlari o'ta-o'tkazuvchanlik materiallarda segnetoelektrik fazoviy o'tishlarning mavjudligi haqida adabiyotlarda mulohazalar yuritilganligi asosiy rol o'ynaydi.  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmalarda akustik exo-impuls metodi bilan fazoviy o'tishlarni tekshirishga kirishishdan oldin segnetoelektrik materiallarda fazoviy o'tishlarni perovskit strukturasiga mos bo'lgan  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmalarida ham asosiy aspektralarni ham qarab chiqish lozim.

Birinchi tur fazoviy o'tishlar kristallarda sakrab o'zgaradi. Ikkinci tur fazoviy o'tishlar nuqtasida esa kristallning simmetriyasiga olib keladi. Moddalar holatining bunday o'zgarishi yashirin issiqlikning yutilish yoki bo'linishi evaziga sodir bo'ladi. Shuning evaziga sakrash sodir bo'ladi. Yuqori simmetriyalı fazoda past simmetriyalı fazoga o'tish panjara atomlarining siljish evaziga yoki bo'lishi mumkin bo'lgan taqsimotlarga asosan sodir bo'ladi. Shunda tartibli –tartibsiz fazoviy o'tishlar sodir bo'lishi mumkin.

II-tur fazoviy o'tishlar termodinamika asoslariga uning tabiatiga bog'liq bo'lmasdan Landau nazariyasiga mos keladi. Segnetoelektrik fazoviy o'tishlar tartib parametrlari spontan qutblanish xizmat qiladi. Bular kristall panjaralar ostidagi atomlarining siljish evaziga yoki molekulalar guruppasining yoki atomlarining tartiblashuvi natijasida vujudga keladi. Landau nazariyasiga

asoslangan segnetikelektrik nazariyasi Geyznburk va Devonshir tomonidan rivojlantirilgan. [3,4]

Fazoviy o'tishlar nazariyasi sistemaning dinamik holatlarini yozishda o'zining keyingi rivojlantirishiga muvofiq ravishda Landauning quyidagi ishlarida sazovor bo'ldi. Bu nazariya yordamida fazoviy o'tishlar chegarasida akustik to'lqinlarning tezligi va yutilishi ifodasiga erishdi.

Keyinchalik [5,6] ishlarida fluktatsion jarayonning roli hisobga olinib diffektlari bo'limgan ya'ni ideal segnetoelektrik kristallarda fazoviy o'tishlar nuqtasi yaqinida dispersiya va tovushning yutilishi ikki relaksatsiyasi va fluktatsion mexanizmlar hisobida topish mumkin.

Relaksatsion yutilish akustik deformatsiya tovush to'lqini va qutblanish orasida chiziqli bog'lanish mavjudligi hisobiga vujudga keladi.

Fluktatsion yutilish esa qutblanishning fazoviy bir jinsli bo'limgan issiqlik fluktatsiyasi hamda tovush to'qinlarining o'zaro ya'sirlashuvidan hosil bo'ladi. Ikkala mexanizm ham yutilishning eksperimental kuzatishlarida har xil hissa qo'shadi.

Agarda kristallar simmetriyasi elementlari orasida Kyuri nuqtasidan yuqori nuqtalarda simmetriya markazi bo'lmasa kristal pezolektrik bo'lsa yutilishning relaksatsion mexanizmi Kyuri nuqtasi atrofidan tashqari barcha  $T_c$  temperatura intervalining quyi va yuqori nuqtalarida o'zining ma'lum hissasini qo'shadi. Agarda kristall parafazada pezolektrik bo'lmasa u holda relaksatsion yutilish  $T > T_c$  da faqat deformatsiya va elektr qutblanishining elektrostrission o'zaro ta'sirlashushi natijasida hosil bo'ladi va effekt juda kamligi, zaifligi uchun kuzatilmaydi. Bu holatda tovushning yutilishi Kyure nuqtasidan yuqori butunligacha fluktatsion mexanizm ham birgalikda shunga olib keladiki, Kyure temperaturasi  $T_c$  yaqinida tovushning yutilish cho'qqilari va minimum tezlik kuzatiladi. Bu anizatropiyada tezlik va ultratovushning yutilishi o'rni mavjudligidan dalolat beradi.


Segnetoelektriklarda II-tur faziviy o'tishlarni tushuntirish nazariyasida qutblanishning issiqlik fluktatsiyasiga asoslangan holda boshqacha nuqtai-nazarda qaraladi.

Landau nazariyasida qutblanish fluktatsiyasi hisobga olinmaydi. Unda to'liq bo'limgan termodinamik potensial qaraladi, ya'ni kristalning bitta erkinlik darajasiga bog'liq bo'lgan hajmi bo'yicha bir jinsli bo'lgan parametrning tartibi η spontan qutblanish qaraladi. O'z navbatida Kyure nuqtasi atrofida tovush to'lqinlarini qutblanish fluktatsiyalari bilan o'zaro ta'sirlashuvi ultatovush tezligining kamayishiga simmetrik va simmetrik bo'limgan fazolarda yutilish koeffitsiyentining ortishiga olib keladi.

Shunday qilib tovushning yutilishi o'tish temperaturasidan past temperaturalarda issiqlik fluktuatsiyasining kuchayishi va Landau Xalatnikov relaksatsion mexanizmlar bilan bog'liqdir.

$T > T_c$  holatda parafazada pezoeffektga ega bo'limgan segnetoelektriklarda akustik anomaliya ya'ni chetlanish hosil bo'lishiga qutblanish fluktatsiyasi asosiy rol o'ynaydi.

Agarda  $T \rightarrow T_c$ ,  $\tau$  ortadi,  $T = T_c$  bo'lgan holda esa  $\vartheta$  tezlik bilan  $\vartheta_\infty$  qadar ortadi va  $\omega\tau^{\frac{1}{2}}$  birlik tartibda bo'lib keyinchalik ortib boradi. (1-rasm)



**1-rasm.** Landau-Xalatnikov nazariyasiga asoslangan fazoviy o'tish oblastida tovush tezligi va yutilishi koeffitsientini temperaturaga bog'liqligi.

Bir o'qli segnetoelektriklarda Landau-Xalatnikov relaksatsion hodisasi faqat tovush to'lqinlarining tarqalishi va qutblanishi aniq yo'naliishlarda, qachonki akustik deformatsiya C o'q yo'naliishlariga elektr qutblanish va elektrostruksion o'zaro ta'sir bilan bog'lagan holatdagina kuzatiladi.[7]

Uzoqdan ta'sir etuvchi Kulon [8] kuchlari ta'sirda bir o'qli kristallarda qutblanish fluktuatsiyasi sezilarli darajada kuchsizlanadi. Natijada bunday kristallarning akustik xususiyatlari ( $T - T_c$ ) kichik qiymatlarida ham Landau-Xalatnikov nazariyasi chegarasida yozilishi shart va bunday chetlanish fluktatsion effektdan emas balki boshqa sabablar birinchidan real kristallar strukturasida ko'p sonli nuqtaviy defektlarning mavjudligidir.

## **1.2. $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ BIRIKMASIDA AKUSTIK TATQIQOTLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR.**

O'ta-o'tkazuvchilik effekti azot temperaturasi (22K) da 1987-yil boshlarida Amerika Qushma Shtatlarining Xuyuston universitetida „P Chu va Amerikei Bell“ laboratoriyasi kompaniyasi B. Batlogg biroz vaqtidan so'ng sobiq SSSR FA P.N Lebedev nomli Fizika institutida qayd etildi. Ikala holatda ham o'ta o'tkazuvchanlik material sifatida tarkibida boriy (Ba) mis oksidi (CUO) va lanton (la) maxsus keramika qo'llandi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida bu muammolar bilan Xyuston universitetidan P chy va Ameriken telegrat end telefon Bell" labaratoriya kompaniyasidan B Badlogg sobiq SSSR FA Fizika institutidan A. Golavalikin rahbarligida labaratoriya hodimlari shug'ullandilar.

Perovskit strukturasiga ega bo'lgan yuqori haroratli o'ta –o'tkazuvchan materiallar aniqlangandan keyin o'ta o'tkazuvchanlikka o'tishlarda tashabbuskor sifatida segnetoelektrek fazoviy o'tishlar haqida savol tug'ildi.

Metalloksidlar xususiyatlariga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy maqolalar paydobo'ldi. Metalloksidlar orasida ko'proq  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmalari batafsilroq tekshirildi. Yuqori haroratli o'ta –o'tkazuvchan keramika  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  da akustik tekshirishlarga bag'ishlangan ishlarda 60-80Kva 200-250K temperatura intervallarida ularning elastik xususiyatlarini xarakterlovchi ulkan temperatura giserezisi aniqlandi. Bu giserezisning shu temperature oblastida mavjudligi va uni tekshirilayotgan materiallarning real strukturasida ularning termaishlovlar natijasida olinishini aniqlaydi. [9] Ishga o'rnatildiki katta o'lchashga ega bo'lgan keramik namunalarda temperatura mikraskop yordamida qaralganda tovush tezligining ikkilangan giserezis strukturasi aniq aks ettirilgan ammo giserezis kichik o'lchamga ega bo'lgan namunalarda mavjud emas. Yuqoridagi ishga tovush tezligi giserezisining tabiyati haqida biron takliflar aytilmagan. E'tiborni qozonadigan [10] ishda X

ning har xil qiymatlarida ikkilangan chegara atrofida muayyan joydagi fazoviy o'tishlar aniqlanganligi etiborni qozonadi.


Yuqorida qayd etilganidek [10] ishning natijalaridan imkoniyatlар ko'rindiki,  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmasida gisterezisning temperatura xususiyatlari ikkilamchi chegaralar bilan bog'liqligidan shunday xulosa qilish mumkun. Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  kiramikasida  $T_c=60\text{K}$ , 90-200K temperatura intervalida tabiatan ikki xil xususiyatga egadir. [11] ishlarida  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramekasida ultra tovushning tezligi va yutulishi o'lchangan edi. Bo'ylama to'lqinning xona temperaturasida orto-I va tetro-II namunalarida taxminan mos ravishda  $4,5 \times 10^5 \text{ sm/s}$  va  $4,9 \times 10^5 \text{ sm/s}$  tempera. Temperaturani pasayishi bilan tovush tezligi monoton ravishda ortib boradi. Temperaturaning pasayishi bilan tovushning yutilishi esa kamayib bordi. Orto-I va tetro-II larning farqi shundan iboratki orto-I katta qattqlikka ega 13 MGs chastotada orto-I da 250 K va tetro-II da 220 K atrofida keng maksimumlar kuzatilgan.  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  da otrorombik va tetragonal fazalar akustik to'lqinlarning yutulishidan temperaturaga bog'liqligi eksperimental tatqiqot qilindi. [12]

Keramik texnologiyalar asosida tayyorlangan yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan meterillarda akustik to'lqinlarning uyg'otilishi yuzasidan o'tkazilgan tatqiqotlardan olingan natijalarda asosan ultratovushning tezligi va yutulishiga xos natijalar ba'zan o'ta o'tkazuvchanlikka o'tish temperaturasidan yuqori  $T_c$  temperaturalarida kuzatiladi. Hajmiy akustik to'lqinlarida tezlikning gisterezis hodisasining namayon bo'lishi qiziqish uyg'otadi. Gisterezis ba'zan  $T_c$  yaqinida va  $T_c$  dan past 200-240 K temperaturalar kuzatiladi. Gisterezis ba'zan temperaturaning birhil bo'limgan funksiyalari hisoblanib namunalarning tayyorlanish tarixiga bog'liq. [13] Shuning uchun kuzatilgan temperaturaviy chetlanishlarni tushuntirib berishda ayrim qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Yuza bo'ylab tarqalayotgan akustik to'lqinlar klin ko'rinishdagi  $\text{C}_\text{d}\text{S}_3$  va emperatu pezoqatlam o'zgartiruvchi qo'llanilgan va uyg'otilgan.

Qator namunalar [14] metalloksid tipdagi keramikalarda  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  fizikaviy xususiyatlari tahliliga oid tadqiqotlarda asosan bu sistemalarda 2 ta fazoviy o'tishlar to'liqligicha kuzatilgan. Elektronli sistemalar tagiga va strukturaviy fazoviy o'tishlardagi bu o'ta o'tkazuvchan fazoviy o'tishlar ortorombik va temperatura fazolarning qaytara oladigan aylanishlaridan hosil bo'lgan.Bundan tashqari segnetoelektrik fazoviy o'tishlar haqida ham ma'lumotlar paydo bo'ldi.Ya'ni spinli sistemalar tagidagi [15] fazoviy o'tishlar kislarodlar panjarasi [16] fazoviy o'tishlarga o'zgaradigan fazoviy o'tishlar paydo bo'ldi.

T~320K temperaturadagi anomaliya uzliksiz tipdagi fazoviy o'tishlar natijasida  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  ( $x=0,8$ ) hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Avtorlar [17] panjara doimiysi va temperatura bilan bog'liqlikdan spontan qutblanishning temperaturadagi grafigini tuzib unda 430K atrofida qiymati xona temperaturasida  $10 \text{ mk kl/sm}^2$  yopiq fazoviy o'tishlar haqida ma'lumot berdilar.[2-rasm]



2-rasm. [17] Berilgan ishdagi ma'lumotlar bo'yicha spontan ( $0^{\circ}\text{z}-0^{\circ}\text{z}$ idan) elektr qutblanish

Shunday qilib yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlar yuqori haroratlari o'ta o'tkazuvchan materiallar  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  da segnetoelektrik fazoviy o'tishlar haqidagi eng so'nggi ma'lumotlar degani emas. Asosiy e'tibor [18] qaysi-kim  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramika va monokristallarda 80-300K temperatura intervalida issiqlik EYuK  $S=f(T)$  temperaturaga bog'liqligi o'r ganilgan. Mualliflar T~215 K temperaturada monokristallarda T~240K polikristallarda issiqlik EyuK fazoviy o'tishlar evaziga hosil bo'lganligini ta'kidladilar.

### **1.3. MASALANING QO'YILISHI VA BO'LIM BO'YICHA XULOSALAR.**

Yuqori haroratlari o'ta o'tkazuvchan materiallarda ultratovushli tadqiqodlar bo'yicha adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar quyidagicha xulosalar qilishga imkoniyat beradi.

1. Hozirgi davrgacha YuHO'O'M keramikalarida ultra tovushli tadqiqotllar bo'yicha juda ko'p natijalar olingan
2. Tadqiqot natijalari har xil bo'lismiga qaramay ularda umumiylilik mavjud, ya'ni 400-470K 220K, 100K va 50K temperaturalarda ittriy keramika 1-2-3 sezgir strukturaviy anomaliya (chetlanish) bilan bog'liqdir.
3. Issiq EYuKning temperaturaviy bog'liqligi  $T \sim 220-240\text{K}$  temperaturalar oralig'da fazoviy o'tishlar mavjudligi taxmin qilinadi.
4. Ultratovush to'lqinlarining keramika materiallarida tarqalish tezligining giserezis hodisasi ba'zan  $T_c$  dan yuqori va ba'zan  $T_c$  past temperaturalarda mavjudligi qiziqish uyg'otadi.

## **II BO'LIM. EKSPRIMENTNING METODIK QISMI.**

### **2.1 NAMUNALARING TAYYORLANISHI.**

Yuqori haroratli keramika va monokristallarni tayyorlash texnologiyasi.

YuHO’O’M 123 tarkibli keramik va monokristall namunalar uch etapda tayyorlanadi: shixtallarni (pechga toshlanadigan aralashmalar) olish keramikalarni qizarib yaxlit bo'lak hosil qilish kislorod atmosferasida kuydirish. Keramikali qizdirish kuydirish mufel pechida olib borildi. Asosiy holda CuODa(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>Y<sub>2</sub>O<sub>3</sub> markali elementlar olinib spirt aralashtiriladi va ochiq havoda quritiladi, so'ngra 830-850 °C qizdiriladi. Shu yo'sinda olingan shixtalardan zich joylashgan keramika namunalar tayyorlanadi. Keramikalar 930-940 °C temperaturada bir necha soat davomida vakuumda yoki havoda masalaning qo'yilishiga qarab qizdiriladi.

**Namunalar tayyorlashning ba'zi xarakteristikalari.**

**(1-jadval)**

<b>№</b>	<b>X</b>	<b>C, Å</b>	<b>O, Å</b>	<b>T<sub>c</sub>, K</b>
<b>1</b>	<b>0</b>	<b>11.67</b>	<b>3.813</b>	<b>92</b>
<b>2</b>	<b>0.2</b>	<b>11.71</b>	<b>3.825</b>	<b>83</b>
<b>3</b>	<b>0.4</b>	<b>11.74</b>	<b>3.846</b>	<b>56</b>
<b>4</b>	<b>0.8</b>	<b>11.81</b>	<b>3.859</b>	<b>-</b>
<b>5</b>	<b>1</b>	<b>11.84</b>	<b>-</b>	<b>-</b>
<b>6</b>	<b>0</b>	<b>11.67</b>	<b>3.813</b>	<b>92</b>

Undan keyin keramik namunalar  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  formula bo'yicha kislород miqdori  $x=0$  ga teng bo'lgunga qadar ortorombik fazo hosil qilish maqsadida kislород atmosferasida qizdiriladi. Monokristallar esa  $3*3*3\text{mm}^3$  o'lchamdagи silindr ko'rinishda  $\text{Al}_2\text{O}_3$  (konund) stakanchaga joylashtirilib shixta siqilib qaytadan  $950-1000\text{ }^{\circ}\text{C}$  temperaturalarda qizdirilib 0,5-0,1grad/soat tezlik bilan sovitiladi.

Kislарод miqdorini qisman  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  chiqarish va kerakli miqdordagi ( $x=0 \div 1$ )kislорodni hosil qilish uchun:  $x < 0,1$  ni hosil qilish uchun gaz atmosferasida 15 soat davomida portsial bosim ostida yuqori temperaturali ishlov beriladi. Shundan keyin esa suyuq azotda qotiriladi.

Namunalarni olish texnologiyasi 2-jadvalda keltirilgan.

## NAMUNALARINI OLİSH TEKNOLOGIYASI.

**2-jadval**

№	O <sub>7-x</sub>	Qizdirish toblash muhiti	Ushlab turish temperatu rasi	Panjara parametri		Ushlab turish vaqtı
				a, Å	c, Å	
1	x=0			3,813 Å	11,67 Å	
2	x=0.2	Atmosfera bosimida Azot N <sub>2</sub>	670°C	3,825 Å	11,71 Å	15 soat
3	x=0.4		835°C	3,830 Å	11,74 Å	15 soat
4	x=0.8		890°C	3,859 Å	11,84 Å	15 soat
5	x=1	Vakuumda 10 <sup>-5</sup> mm.sim.ust	800°C		11,84 Å	4 soat
6	x=0			3,813 Å	11,67 Å	


## **2.2 AKUSTIK EXO-IMPULS METODI VA O'LCHASH METODIKASI.**

Tatqiqotlar o'tkazishning asosi etib exo-impuls metodi o'rinni egallagan. Bu ishgacha yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan materiallar ultratovush tatqiqotlari 1-bo'limda ko'rsatilganidek (10 MGs dan) past chastotalarda o'tkazilgan YuHO'OM da yuqori chastotali ultratovush to'lqinlari bilan tadqiqotlar o'tkazilganda yutilish anomaliyalari aniq ravshan kuzatishga imkoniyat berardi.

Shunday bo'lsada yuqori haroratli o'ta-o'tkazuvchan keramika va monokristallar yuqori chastotali (10-150MGs) oblastda ultratovushning kuchli sochilishiga sababli zarralar chegaralari orasidagi kichik to'lqin uzunligining mavjudligi xuddi shuningdek zarrachalar o'lchamlari bilan ultratovush to'lqin uzunligining chastotasi tatqiqotlarni o'tkazishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun yuqori chastotali oblastda o'lhash sezgirligini oshirish talab etiladi.

Namunalarda ultrayovush yutilishini o'chash uchun uning yassi parallel tomonlariga perpendikulyar holda juda qisqa namuna bo'ylab tovushning o'tish vaqtiga taqqoslaganda yuqori chastotali ultratovush impulsleri kiritiladi.

3-rasmda qurilmaning blok sxemasi ko'rsatilgan.




**3-rasm.** Qurilmaning blok sxemasi

1-namuna, 2-YuCh-generatori, 3-GZ-19 – uzatuvchi generator, 4- yuqori chastotali kuchaytirgich, 5- moslama, 6- yuqori chastotali kuchaytirgich, 7-ossillograf, 8-millivoltmetr, 9-termopara.

Tashkil etilgan yuqori chastotali generator (2) bilan (5) moslama orqali radioimpuls pezoo'zgartiruvchiga va uning yordamida (1) namunaga tovush impulslari yuboriladi. Qarama-qarshi tomondan qaytgan to'lqin pezoo'zgartirgichga qaytadi va bir qismi yana elektromagnit signallarni (4,6) yuqori chastotali kuchaytirgich orqali exo-impuls seriyalari ko'rinishida (7) ossillografga kelib tushadi.

O'lchash qurilmasida quyidagi asboblar ishlatilgan yoki qo'llanilgan: 10MGs diapozonda УД2-12 30-200 MGs diapozon uchun Г3-19А, Bu(yuqori chastotali) X5-5А kuchaytigich va П5-2 qabul qilgich. Temperatura 77-300 K da mis-konstanta, 77-550K xromel-kopel termoparalari yordamida o'lchanadi. 77-300 K temperatura intervalida o'lchanayotgan namuna azot bug'ida joylashgan 300-500K intervalida esa muhitni o'rabitgan atmosferada namunani ushlab turuvchi ushlagich 4-rasmda ko'rsatilgan.



**4-rasm. Namunai ushlagich**

**1-namuna, 2-oboyma(metall joylashtirgich),3-7-prujina,**


**5-kamera. 6-boyok, tutib itarib yuruvchi moslama.**

**9-volnovod, 10-tirqish**

Tovush impulsalarini kiritish uchun niobat liteydan yasalgan pezoelektrik o'zgartiruvchi 1, qaysi kim namunaning yassi parallel tomonlaridan biriga yelimlanadi 2. Peredatchikdan uzatuvchi o'zgartiruvchi asosiy chastotasida yoki toq garmonikasida ishlaydigan radioimpuls 3-o'zgartiruvchi namumaning parallel tomonlariga bosib qo'yiladi, pezoelektrik effekt natijasida elastik to'lqin uyg'onib namuna bo'yicha tarqaladi.

Qaytishga va o'tishga asoslangan ish turini tanlash tajriba jarayoniga bog'liq. Uyg'otuvchilar yordamida bo'ylama yoki ko'ndalang to'lqinlarni uyg'otish mumkin.


Dastlabki impuls namunadan o'tayotib, namuna havo chegarasidan tovush to'liqligicha qaytadi. Namuna - uyg'otuvchi chastotasi orqaga qaytadi, u yerdan diyarli bir qismidan tashqari hamma tovush energiyasi yana namunaga qaytadi. 4-o'zgartiruvchi yordamida qaytgan impulsning kichik energiyasi (5-rasm) qaytadan elektr signallariga aylanadi.



**5-rasm. Bufer-namuna-uyg'otuvchi sistemasi.** a) nisbiy litiydan ( $\text{LiNBO}_3$ ) tayyorlangan tovush uyg'otuvchi. b)  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  namuna c) $\text{SiO}_2$  –kvars (300-550 K) dan yoki Ge-germaniydan (77-300 K) yasalgan bufer. d) kley, e)yutqa tillo qatlam.

Bu elektr signal 5-kuchaytirgich bilan kengaytiriladi va 6-ossillografda kuzatiladi.

Bu jarayon juda ko'p marta takrorlanadi. Namunadan o'tayotganda elastik to'lqinlar energiyasining bir qismi yutiladi yoki sochilish evaziga tovush dastasidan ketadi. Natijada har bir qaytgan impuls amplitudasi jihatidan kichiklashib borayotgan signallarni ossillografda kuzatish mumkin. (6-rasm)



**6-rasm. Ossilografda qaytgan impulslar seriyasi.**

### **2.3. TOVUSHNING YUTILISH KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH METODIKASI.**


Tovushning namunada yutilish koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Delta\alpha(T) = 20 \cdot 21 \lg U_0 / (U_0 - U_t) \quad (2.3.1)$$


Bu yerda  $l$ - keramikaning uzunligi,  $U_0$  - birinchi impulsining maksimal qiymati,  $U_t$  berilgan temperaturada birinchi impulsning amplitudasi. Buferning tanlab olinishi taqdim etilgan formula yordamida hisoblashdagi xatoni aniqlashga imkoniyat beradi. Yuqori (77- 550)K haroratlarda kvars shishasidan tayyorlangan bufer qo'llanilgan. Kvarsdan tayyorlangan buferda tovushning yutilishiga berilgan intervalda temperaturaga bog'liq emas.(7-rasm)

77-300 K temperatura intervalida Ge (germaniyligida) dan yasalgan buffer qo'llanilgan (8-rasm).

Har bir o'lchash o'rtacha 5 martadan o'lchanib uning o'rtacha qiymati olingan. Geniratordan namunaga juda aniq amplituda va davomiylikdagistandart (o'lchovli, mezonli) impuls tushadi.



**7-rasm. Toza kvarsda ( $\text{SiO}_2$ ) ultratovush yutilishining temperaturaga bog'liqligi.**




**8-rasm. Toza germaniyda ultratovush yutilishining temperaturaga bog'liqligi.**

## **III-BOB. $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ KERAMIKALARIDA RELAKSATSION HODISALARING TABIATINI TEKSHIRISH.**

3.1 77-300 K temperatura intervalida  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramikasida relaksatsion hodisalarini tekshirish.

Tekshirishlar avval rentgenostrukturali analiz qilingandan keyin  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  ( $x=0-1$ ) namunalarida o'tkazildi. Tekshirilgan namunalar haqida ma'lumot 2-jadvalda keltirilgan.Ultratovush to'lqinlari yutilishining kattalik tufayli namunalar qalinligi 500 mkm bo'lgan yupqa disk shaklida tayyorlangan. Ultratovush impulsining birinchi tartibli amplitudasining (impulsning davriyili 1mks kichik)  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  ning qator birikmalari uchun temperaturaga bog`liqligi o`lchangan . Bu malumotlarga asosan ultratovush to'lqinlarining temperaturaning o'zgarishiga qarab ultratovush yutilishi o'zgarishi aniqlangan.(9-14) rasmlarda ultratovush har-xil tarkibli  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  kiramikalarda temperaturali konsentratsiya bog'lanishlari keltirilgan hamma spektrlarda ultratovushning 100 K temperaturada anomal yutilishlar kuzatiladi.



**9-rasm. Bo'ylama ultratovush to'lqini  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramika yutilishini temperaturaga bog'liqligi. 370 K da 30 MGs chastotadagi anomaliyasi.**

9- rasmida ko'rindanidagi 100 Kdagi yutilish cho'qqilarining intensivligi va holati kislorod miqdoriga ham bog'liq bo'lib , konsentatsiya miqdorining oshishi bilan bu cho'qqilar temperaturaning past tomonga qarab siljishi o'ziga jalg etadi. 100K dagi chastotaga bog'liq bo'lgan maksimum cho'qqilar bir xil vaqtini relaksatsiya bilan Debayning relaksatsion bog'liqligini tavsiflaydi. Oktivatsiya energiyasi  $W$  va chastotaning urilishi  $\Omega$  quyidagi formulalar yordamida aniqlangan .

$$\tau = \tau_0 \exp(-W/k_b T) \quad (3.1)$$

$$\Omega = \Omega_{\text{eff}} \exp(-W/k_b T_m) \quad (3.2)$$


Bu yerda  $k_b$ - Boltsman doimiysi  $T_m$  maksimum temperatura 100 K dagi cho'qqi uchun aktivatsiya va chastota urilishi  $W \sim 0,112V$  va  $\Omega \approx 5 \times 10^4 \text{ C}^{-1}$  teng ekan.

Ultratovush to'lqinining 100K dagi anomal yutilishi boshqa ishlarda [19] ham kuzatilgan.

Kuzatilgan chetlanishlar qator mualliflarning fikriga yuqori haroratlari o'ta o'tkazuvchan materiallarda strukturaviy o'zgarishini tavsiflaydilar. Ba'zi mualliflar esa bu anomaliyani birikmadagi kristall panjaralarning  $T_c$  o'ta o'tkazuvchanlikka o'tish temperaturasi chegarasida aniq turg'un emasligi bilan bog'lab tushuntiradilar . Yuqoridagilarga asosan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin . 1kGs chastotalarda 62K temperatura kislorodning kichik qiymatlarida olingan termoaktivli relaksatsion maksimumi qiymatlari 100K temperaturadagi  $W$  va  $\Omega$  ning qiymatlari mos keluvchi parametrleri bilan muvofiq keladi. Yuqorida namunalarda topilgan maksimum choqqilarining kislorodga bog'liqligi va intensivligiga bog'liqligi  $W$  va  $\Omega$  ning Arrenius parametric ko'rsatsadiki bu cho'qqilar 0(1)-0(5) tekisligida kislorod atomlarining termoaktivlashgan sakrashlaridan hosil bo'ladi. Xuddi shunday xulosalar [17] ishida bajarilgan.


Past haroratdagi spektrlarning  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramikalaridagi xarakterli tomoni 230-80K temperatura intervalida yutilishning temperaturaviy gisterezisning mavjudligidir. Shu bilan birga yutilishi egri chizig'i qizdirilganda hamma vaqt sovitilganidagidan yuqori o'tadi. Bundan ulkan gisterezis faqat 200K temperaturadan past temperaturalarda kuzatiladi.

10-rasmda ultratovush to'lqinining yutilishi chastotagava temperaturaga bog'liqligi  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramika uchun (har xil miqdordagi kislorod) va 230-80K temperatura intervalida UT ning yutilishini temperaturaga bog'liqligi ko'rsatilgan.



**10-rasm.** Bo'ylama ultratovush to'lqinlarining  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramikada yutilishining temperaturaga bog'liqligi. (kislород x-konsentratsiyasining har xil qiymatlari) temperature gisterizisi faqat  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{6.2}$  keramika uchun ko'rsatilgan.


Past haroratdagi anomalariyaning tabiatini hozircha tushunarli emas, balki qandaydir birinchi tartibli fazoviy o'tishlar bilan bog'liqdir. Bu temperatura oblastida kristall panjara parametrlarida kuchli sakrashlar ro'y beradi. (11-rasm)



**11-rasm. Ultratovish to'lqinining  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{6.2}$  keramikasida yutilishining 50 MGs chastotada temperaturaga bog'liqligi. Temperatura gisterezisi.**


### **3.2. AKUSTIK TO'LQINLAR YUTILISHINING $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ KERAMIKASIDA 77-550K TEMPERATURA INTERVALIDAGI ANOMALIYASI.**

$\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramikasida 370-470K temperatura oblastida fizikaviy anomaliyaning tabayyi haqidagi muammoni tushuntirish uchun ultratovushli tekshirishlar o'kazildi. Bo'ylama ultratovush to'lqinlarining yutilish koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi 10, 30, 50, 90, 150 MGs chastotalarda xona temperaturasidan 550K ga qadar tekshirildi. Bu holda uzunligi 1sm bo'lgan kvars dan yasalgan tovush o'tkazgich qo'llanildi. Eksperimental qurilmaning sxemasi 3-rasmda ko'rsatilgan. Bu ma'lumotlardagi temperaturaning o'zgarishi bilan ultratovush to'lqinlarining o'zgarishi aniqlangan. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki temperaturaning ortishi bilan tovush to'lqinining yutilishi ortadi, biror temperaturada maksimal qiymatga erishadi va kamayadi. (12-rasm)



**12-rasm.** Bo'ylama ultratovush to'lqinlarining  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_7$  keramika namunalarida yutilishining temperaturaga bog'liqligi.

Tadqiqotlarda olingan natijalar yutilishning Debay relaksatsion bog'liqligi ( $\alpha = A\omega^2\tau/(1+\omega^2\tau^2)$ ) va relaksatsia vaqtining temperatura bilan aktivatsion bog'liqligi ( $\tau = \tau_{eff}e^{w/kT}$ ) nazariya bilan qayta tahlil etilganda ularning qiymatlari mos keladi[20-22]. (13-rasm)




13-rasm. Bo'ylama akustik to'lqinlarining har-xil  $x$  va 50 MGs chastotada temperaturaga bog'liqligi.(punktr chiziq nazariy hisoblashlar va taqqoslashlar).

### **3.3. $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ MONOKRISTALLAR RELAKSATSION HODISALAR TABIATINI 77-500K TEMPERATURA ORALIG'IDA TEKSHIRISH.**

Monokristall namunalarida yuqoridagilarga o'xshash tekshirishlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib yuqori chastotali ultratovush (10-150MGs) yutilishining konsentratsiyali va temperaturali bog'lanishi 77-550K temperatura diapozonida  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  ( $x=0 \div 0.8$ ) monokristallarida o'rganildi. UT yutilishini konsentratsiyali va temperaturaviy bo'g'lanishi akustik exo-impuls metodi bilan o'rganildi. Monokristallar ham keramika kabi (300-500Mkm) yupqa plastinka shaklida bo'lib buferga yelimlangan. Monokristall plastinkaning C o'qi uning yuzasiga perpendikulyar bo'lgan. Monokristallarda ham birinchi exo-impulsning temperaturaga bog'liq o'lchangan. Temperaturaning o'zgarish tezligi 0,1km/sek ni tashkil etadi. 14-rasmda monokristalning C o'qi bo'yicha tarqalayotgan bo'ylama ultratovush to'lqinlari yutilishini temperaturaga bog'liqligi mos ravishda  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  va  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  da ko'rsatilgan. 100K da kuzatilgan UT yutilishi relaksatsion jarayonlar bilan emas balki birinchi tartibli fazoviy o'tishlar bilan bog'liqdir. X=1.0 teng minimal miqdorda kislorod bo'lgan namunalarda gisteresis hodisasi kuzatilmaydi. Bunaqa namunalarda gisteresisning bo'lmasligi fazoviy o'tishlarning panjara tagidagi kislorodning taqsimlanishi evaziga , bu o'tishlarning tabiatini haqidagi qarashlarga mos keladi .

A.  $\partial B / \text{sm}$



**14-rasm.** Bo'ylama akustik to'lqnni yutilishi.  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{6.8}$  monokristalining C- o'qi bo'yicha tarqalishida chstota va temperaturaviy bog'liqligi.

Relaksatsiya hodisasiga asosan termo diffuziya koeffisientini hisoblash mumkun.

Buning uchun quyidagi formuladan foydalanamiz [23].

$$D=D_0 \exp(-W/kT) \quad (1)$$

Bu erda  $D_0$   $v_a$   $\alpha^2$ , shunda  $\alpha$ -sakrab uzgaruvchi masofa  $\alpha=3 \cdot 10^{-8}$  sm,  $v_a=5 \cdot 10^{14}$  Gts ( $\Gamma_{\text{ц}}$ ) u hoida  $D=0,4 \text{ sm}^2/\text{sek}$  ga ega bulamiz. Bu yirda w- (активация) aktivatsiya energiyasi, k-Boltsman doimiysi T-yutilish chuqqilarining yuqori temperatura chegarasi ( $\sim 600$ K).

Bundan kiyin Eynshteyn (Эйнштейн) tenglamasidan (foydalanib) qullab, ion utkazuvchanlikni hsoblaymiz.

$$\tau=(Nq^2D_0/kT)\exp(-W/kT) \quad (2)$$


bu erda  $N$ ,  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  birikmasining birlik hajimdagi ionlar soni, q-zaryad miqdori,  $N=5 \cdot 10^{21} \text{ sm}^{-3}$  [23],  $q=2e$ - elektron zaryadi  $T \approx 600$  K u holda [23] ga asosan,  $\tau=2 \cdot 10^7 (\text{Om} \cdot \text{sm})^{-1}$  ga teng buladi.

Shunday qilib yuqorida o`tkazilgan tajribalarga asosan aniqlangan ion o`tkazuvchanlik miqdori (qiymati) jihatidan matiriallarda superion o`tkazuvchanlik qiymatiga teng, yani  $\tau=1,7 \cdot 10^{-2} (\text{Om} \cdot \text{sm})^{-1}$  [23]

12-13 rasmlarda Ultratovush to'lqinining  $T \geq 230$  K dan yuqori temperaturalardagi bog'liqliklari ko'rsatilgan. UT chastotaning kamayishi bilan cho'qqilar maksimumi past temperatura tomonga qarab siljishi uning relaksatsion tabiatidan darak beradi. Bu cho'qqilar namunalarni qizdirish va sovutishda hech qanday gisterizis kuzatilmaydi. Eksperiment natijalarida qayd etilgan  $T_0=430$ K temperaturada  $\tau \sim (T-T_0)^{-1}$  ( $T_0$ -fazoviy o'tish temperaturasi) temperaturaning relaksatsiya vaqtini nazariy hisoblar bilan mos keladi. Balki bunday fazoviy o'tishlar Cu-O zanjirida kislorod atomining taqsimlanishi bilan bog'liqdir.

Shunday qilib  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  kermika va monokristallarda ( $x=0.2 \div 0.4$ ) konsentratsiya miqdorida temperatura (230-80)K intervalida ulkan ultratovush to'lqinlari yutilishining temperatura gisterizisida aniqlandi. Bu (10-150MGs ) chastota diapozonida (230-80)K temperatura intervalidagi fazoviy o'tish bilan bog'langandir. 430 K temperatura atrofida strukturaviy fazoviy o'tish chastotaga bog'liq bo'lgan akustik to'lqinlar yutilishining relaksatsion maksimumining mavjudligiga kislorod panjaralari tagida relaksatsion tebranishlar sabab bo'ladi. (15-rasm)

THE HIGH  $T_c$  SUPERCONDUCTOR



15-rasm.  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  kristalining strukturası.

## **XOTIMA VA ASOSIY XULOSALAR**

Shunday qilib bajarilgan tadqiqotlar va o'tkazilgan tahlillar ko'rsatadiki 430 K temperatura atrofidaga kuzatilgan UT yutilishining anomaliyasi UT to'lqinini defektlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Xulosa qilish mumkinki, bunaqangi defektlar ya'ni kamchiliklar „Mis-kislород“ zanjiridagi kislород ionlari bo'lishi mumkin. UT to'lqini ionlar joylashish holatini buzadi, natijada UT yutilishi relaksatsiya hodisasini vujudga keltiradi.

—UT to'lqinini past haroratlardagi anomaliyasi haqida shunday xulosa qilish mumkin. 100 K va 250 K temperatura atrofidagi keng cho'qqilar elektronlar relaksatsiyasi bilan emas balki ionlar xarakteri bilan bog'liq. (230-80)K temperatura intervalidagi ulkan yutilish gisterizisi balki birinchi tartibli strukturaviy fazoviy o'tish bilan bog'liqdir.

**BITIRUV MALAKAVIY ISHda** olingan natijalarni quyidagi xulosalarda ifodalash mumkin.

### **TA'RIFFLASH.**

1. Birinchi marotaba UT to'lqinini 10-150MGs chastotalar bilan 77-550K temperatura intervalida yutilishini konsentratsiyaga bog'liqligi o'rnatildi.  
-Qayd etilgan aniqlangan UT to'lqinning yutilishi anomaliyasi  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  keramika va monokristallarida 100K, 400-270K temperatura intervalida va 230-80K temperatura intervalida ulkan UT yutilishi gisterizisi mavjud.
2. 100 K temperaturada strukturaviy fazoviy o'tish monokristall va keramikalarda mavjudligi ularning kislород panjaralari tagiga relaksatsion tebranishlar sababli vujudga keladi.

3. 400-470K temperatura intervalidagi UT to'lqinining yutilish maksimumi segnetoelektrik tipidagi fazofiy o'tishlarga to'g'ri keladi.
4.  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  materialidagi UT to'lqinining yutilish spektriga asosan 100Kda  $W=0,11\text{eV}$ ,  $\Omega_0=5*10^{14} \text{ s}^{-1}$ , 250K da  $W=0,3\text{eV}$ ,  $\Omega_0=4*10^{12} \text{ s}^{-1}$  va 400-470K temperatura intervalida  $W=0,6\text{eV}$ ,  $\Omega_0=2*10^{15}\text{s}^{-1}$  aktivatsiya energiyalari va chastota uzatishlari 77-550 K temperatura intervalida hisoblab topildi .
5. Yuqori haroratli o'tkazuvchan materiallarda  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  ( $x=0\div 1$ ) da ultratovushning yutilish koeffitsiyentining eksperimental natijalariga asosan nazariy tahlil etildi.
6. Materiallarda superion o'tkazuvchanlik qiymati  $\tau=1,7\cdot10^{-2} (\text{Om}\cdot\text{sm})^{-1}$  hisoblandi.

## **ADABIYOTLAR.**

1. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” Toshkent-“O’zbekiston” -2009 y.
2. I.A.Karimov “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” 12-noyabr 2010 yil
3. Гинзбург В.А. О диэлектрических свойствах сегнетоэлектриков и титаната бория. JETF.-1945.-H12 (10) 734-749-бет.
4. Девоншере А.Ф. Тхеорий БАРИУМ Тутанате. Пхил. Mac. 1949.N=1309(40) PP1040-1063.
5. Яковлев И.А., т др. Два новых явления при фазовых превращениях второго рода. UFN. 1957, N=2(63),411-433-бетлар.
6. Леванюк А.П. К Феноменологической теории поглощения звука вблизи точек фазовых переходов второго рода. JETF.1965. MU (49),1304-1311 бетлар.
7. Леванюк А.П. ва бошқалар. Об аномальном поглощении звука вблизи точки Кюри одноосных сегнетоэлектриков. FTT,1968,H 8(10) 2443-2488 бетлар.
8. Струков Б.А. ва бошқалар. Физические основы сегнетоэлектрических явлений в кристаллах. –М-Наука, 1983,240-бет.
9. Masaru Suzuki, at al. Sound Velocity and Attenuation in  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_x$  . Jap. j.Appl. Ohys. 1988. N.3 (27). PP.L308-L310.
10. Melik-Shaxiszarov B. A. va boshqalar. Akusticheskiye issledovaniyeyha monokristallov  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_x$  . Pisma v JETF.1989. vat.2(50).72-75- betlar.
11. Сайко А.П ва бошқалар. О температурном гистерезисе скорости ультразвуковой волни в ВТСП соеденении.  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_x$  FNT. 1993, N=12 (19) 1367-1370- бетлар.

12. Бликовсков Й.Н ва бошқалар. Упручие свойства в области температур 4,2-77К FMM.1988 N=2 (65) 297-398 бетлар.
13. Пал-Вал Л.Н ва бошқалар. Сравнение акустических свойств керамик  $\text{SrO}$  и  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_x$  в интервале температур 5-330 К FNT, 1992. N=2 (18) 126-134-бетлар.
14. Шербонов А .С ва бошқалар Сегнетоелектрические аномалии и сверхпроводимость в металлооксидных соединениях. Писмо JETF. 1989.N/2 (49) 102-105-бетлар.
15. Греднев С.А., ва бошқалар Влияние сегнетоелектрической двойковой структуры на физические свойства .  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  SFXT 1992. N=6(5)/ 1165-1172-бетлар.
16. Гусаковская И.Г. Связь фазового перехода при 240К в керамике  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  с упорядочением кислородных вакансий. SFXT. 1989.N/7(2). 61- бет.
17. Kurtz S.K at el. Mater. Lett.1988.N/10(6) PP. 317-320.
18. Моргун В.Н. ва бошқалар. Термо-ЭДС монокристалла  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$  и фазовый переход при 240 К FNT 1990. N/2(16). 264-267-бетлар.
19. Головашкин А. И. ва бошқалар. Аномалии скорости звука и упругих моделей в окрестности сверхпроводящего перехода  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-x}$ . Писмо JETF. 1998.вип 6(46) 326-329-бетлар.
20. Эргашев И.А Акустическиэ релаксация ва монокристалле  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_x$  Доклади Академик наук РУзб.Г Тошкент2002. N=3. 19-21-бетлар.
21. Lemonon V.V. Ergashev I.A at el. Ultrasonic properties of  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_x$  in the temperature range 300-500K. Ferroelictrcs. Vol30, PP 35-44.
22. Эргашев И А ва бошқалар. Поглощениэ высокочастотного ультра Звука в монокристалле  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_x$  в интервале температур 80-500К Узб.Физ.Жур. 2005.n=3(7) 234-236-бетлар.
23. Dienes G.I. Frequency Factor and Activation energy for the Volume Diffusion of Metals // J.Appl.Phys – 1950/ № 11 (21) - PP 1189-1192.